RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Rasulov Lazizbek
Sambhram universiteti “Biznes boshqaruv” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning nazariy asoslari va uning mamlakatlar iqtisodiyotida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti, raqamli texnologiyalar.

Аннотация

В этой статье представлена информация о содержании концепции цифровой экономики, а также о ее теоретических основах и роли, которую она играет в экономике стран.

Ключевые слова: Цифровая экономика, Организация экономического сотрудничества и развития, цифровые технологии.

Annotation

This article provides information on the content and essence of the concept of digital economy and its theoretical foundations and its role in the economy of countries.

Keywords: digital economy, Organization for Economic Cooperation and development, digital technology.

Dunyoda jadallik bilan rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishini, davlatning iqtisodiy siyosati va boshqaruv tizimini modernizatsiyalashni taqozo etmoqda. Chunonchi raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda joriy etilishi oqibatida mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunda har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, jamiyatning axborotlashganlik darajasi katta ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalarning rolini global miqyosda ham, mahalliy darajada ham ko‘rish mumkin. Bir tomondan, raqamli iqtisodiyot yangi tarmoqlar to‘plami sifatida global iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan qismini ifodalaydi. So‘nggi yillarda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi Internet xizmatlari, uyali aloqa, onlayn o‘yinlar sanoati, elektron savdo va boshqalar uchun katta bozorlarni yaratishga olib keldi. Raqamli iqtisodiyot an’anaviy iqtisodiyotga asoslangan iqtisodiyotdir. Raqamli iqtisodiyot an’anaviy iqtisodiyotdan farqli o‘laroq, jamiyatni tezkor axborotlashtirishga qaratilgandan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda internet orqali yangi raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga asoslangan sohalarni va ish jarayonlarini ham qamrab oladi.

Raqamli iqtisodiyotning o‘sishiga mobil hamda raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bir qancha bozorlarning o‘sishi kata ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot kelgusi 15-20 yil davomida an’anaviy iqtisodiyotga bog‘liqligi saqlanib qoladi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning hozirgi bosqichi va bozorlarning hozirgi holatida raqamli iqtisodiyotga maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida qarash o‘rinlidir. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot o‘zgaruvchan tendenstiyalarga mos ravishda boshqaruv mexanizmlarini o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatmoqda, shuningdek, yangi

biznes modellarini taklif qilmoqda. Ba’zi sohalarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish ayniqsa tez sodir bo‘lmoqda.

“Raqamli iqtisodiyot” ning ijobiy taraflari to‘g‘risida fikr yuritsak, uning natijasida

- mehnat unumdorligini oshadi;
- kompaniyalar raqobatdoshligini oshadi;
- ishlab chiqarish harajatlari kamayadi;
- yangi sohada yangi ish joylari yaratiladi;
- qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikka barham beriladi.

Raqamli iqtisodiyotning hayotimizga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi jihatlari juda ko‘pdir. Bu turdagi iqtisodiyot iste’molchiga ko‘plab imkoniyatlar berib, o‘z navbatida bozorning ham imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bir qator olimlar, muaxassislar tomonidan ijobiy tomonlari to‘g‘rsida juda ko‘p fikrlar bildirilgan.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi xalqaro biznesning ichki va tashqi muhitiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, bu esa kompaniyalar faoliyatining turli yo‘nalishlarida aks ettirilishi mumkin emas. Internet orqali butun dunyo bo‘ylab o‘z mahsulotlarini sotishlari mumkin. Kichik investistiyaga ega bo‘lgan kompaniyalar tezda paydo bo‘lib, tez o‘sib rivojlanishi mumkin.

Axborot texnologiyalari yordamida xarajatlarni kamaytirish hamda ayni paytdagi iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirish uchun bunday imkoniyatlar mavjuddir. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni hisobga olgan holda bozorda kompaniyalarning pozitsiyasi tobora murakkablashib bormoqda. Strategik bir qancha qarorlar qabul qilish jarayonida xavf va noaniqlik darajasi ortib boradi. Bu holat texnologik darajadagi dinamik o‘zgarishlar, raqobatning o‘sishi va iqtisodiyotga davlat ta’siri tufayli barqaror bozor holatiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Raqamli iqtisodiyotga xos bo‘lgan texnologik o‘zgarishlar ishlab chiqaruvchilar hamda xaridorlar uchun yangi bozor qoidalarini yaratishi mumkin. Bunday jarayonda kompaniyalar yangi raqobat strategiyalarini qidirishi va raqobat samaradorligini oshirishlari kerak bo‘ladi. Omon qolish hamda ayni paytda yangi sharoitda rivojlanish uchun kompaniyalar raqamli axborot texnologiyalar sohasida o‘z ulushlarini kengaytirishlari kerak.

Raqamlashtirish bo‘yicha 246 mamlakatda olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli iqtisodning rivojlanish ko‘rsatkichlari turli mamlakatlarda turlicha tendensiyaga ega. Dunyo mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotning ko‘rsatkichlari va shuningdek rivojlanish yo‘llarining turlicha bo‘lishiga qaramasdan, unga faol innovatsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqamli texnologiyalar hamda infratuzilmaga investisiya harajatlarini sezilarli darajada oshirish kabi umumiy bo‘lgan xususiyatlarni kiritish mumkindir.

Qisqa vaqtdagi tarixiy taraqqiyot davriga qaramay, raqamli iqtisodiyot birinchi navbatda savdo va internet xizmatlarida - elektron tijorat, internet -banking, elektron to‘lovlar, internet-reklama, internet-o‘yinlar va boshqalarda raqamli texnologiyalardan foydalanishga qaratilgandir. Ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda dunyoda raqamli platformalar “Amazon”, “Alibaba”, “Facebook”, “Ebay”, “Uber”, “Didi Chuxing” yoki “Airbnb” kabi yirik korporatsiyalar uchun asosiy biznes modeliga aylandi. Bu korporatsiyalar vositachilar va infratuzilma platformalari sifatida muhim bo‘lgan afzalliklarga ham egadir. Ular raqamli platformalardan foydalanuvchilar o‘rtasidagi barcha jarayonlar bo‘yicha ma’lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va qabul qilish imkoniga egadir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot - raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes bo‘lib, elektron tijorat bilan bog‘langan hamda raqamli ko‘rinishga ega bo‘lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyat turi hisobalandi. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar bevosita elektron pul orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Калужский М.А. Маркетинговые сети ва электронной коммерции:

нституциональный подход: монография / изд.3-е, перераб. и доп. – ОмГТУ. – М.-Берлин: Директ-Медиа, 2015. – 338 с.

2. А.А.Энговатова, Т.В.Поспелова Цифровая экономика: рекламный лозунг или реальность? Трансформация бизнес-моделей в условиях цифровой экономики, серия Сборник материалов научно-практической конференции «Неделя инноваций» 12-18 декабря 2017г.

3.Ефимушкин В.А., Ледовских Т.В., Щербакова Е.Н. Инфокоммуникаци-онное технологическое пространство цифровой экономики // Телекоммуникации и транспорт. 2017. Том 11. №5. С.15-20

4. G‘ulomov S.S. va boshqalar. “Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar”. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2019 y. 29 bet.

5.Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(05), 126-130.

6.Gulmira, U. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314-319.

7.Darvishaliyevna, N. D. (2023). Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 3(1), 62-66.

8.Мелибоева, М., & Мелибоев, А. (2024). Развитие управления экономической компетентностью промышленных предприятий в регионах. Журнал универсальных научных исследований, 2(4), 418-425.

9.Sh, U. G., & Khurmatov, B. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining nazariy asoslari. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 401-404.